
TEXNOLOGIYA TA'LIMI VA UNI O'QITISH METODLARI

Xamroyeva Nargiza Shavkatovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiya ta'limi jarayoni va uni o'qitish metodlari haqida fikr-mulohazalar, dolzarb masalalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, mahorat, san'at, mohirlik, ishlab chiqarish metodlari, mehnat tarbiyasi.

Annotation: This article discusses the process of technology education and teaching methods, current issues.

Keywords: technology, skills, art, skill, production methods, labor education.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс технологического образования и методики обучения, актуальные вопросы.

Ключевые слова: технология, умение, искусство, умение, методы производства, трудовое воспитание.

Texnologiya – bu biron-bir ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan uslublar to'plamidir (talqinli lug'at).

Texnologiya – bu san'at, mahorat, mohirlik, ishlab chiqarish metodlari to'plami, holatini o'zgartirishdir (V.M. Shepel).

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logoq – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi.

Mehnat – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati, eng avvalo tabiat predmtlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishini bildiradi.

Mehnat – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati, eng avvalo tabiat predmtlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishini bildiradi.

Mehnat – kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi.

Mehnat odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim belgisidir

TEXNOLOGIYA o'qitish metodikasi fanining maqsadi.

Kichik sinf o'quvchilarini qo'l mehnatiga o'rgatishning asosiy maqsadi, boshlang'ich mehnat elementlari bosqichlarini, ya'ni bajariladigan ishlarning oddiy elementlari (qog'ozlarni buklash, qirg'ich, yelimplash, geometrik shakllarni yasash, applikasiya ishlari)ni yasash bilan boshlaydilar. Undan tashqari qo'l mehnatiga o'rgatishda “Tikish va bichish”, “Pazandachilik”, “Plastilin bilan ishlash”, “Qog'oz va karton bilan ishlash”, “Applikasiya va mozaika ishlari” turlari bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar.

Maktabdagi texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsadi

-mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan;

-o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan;

-ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iborat.

Texnologiya ta'limi va tarbiyasining asosiy vazifalari

- o'quvchilarni mehnatga tayyorlash,
- o'qitish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish,
- davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash
- o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan iborat.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy tayyorlash ruhiy tayyorlash

amaliy tayyorlash

Mehnatga axloqiy tayyorlash o'zaro do'stona yordamni berishni, ijodiy tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat qilishni o'rgatishdan iboratdir

Mehnatga axloqiy tayyorlash o'zaro do'stona yordamni berishni, ijodiy tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat qilishni o'rgatishdan iboratdir

Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi.

Mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta'limining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. U o'zaro bog'langan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli jarayonlarni to'g'ri va aniq amalga oshira bilish, ya'ni u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi.

O'quvchilar mehnati faoliyatining turlari

- 1) maishiy mehnat;
- 2) o'quv mehnat;
- 3) o'quv ishlab chiqarish mehnati;
- 4) ijtimoiy-foydali mehnat.

Pedagogika tarixida quyidagi ta'lim texnologiyalari mavjud bo'ldi .

1. Sinf dars tizimi tipida oqitish bu XIIV asrda Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarini yozib sinf dars tizimini asosladi. Ushbu asarida olim ko'rgazmali o'qitishni tashkil etdi, o'sha davrdan shu kungacha tushuntirish, izohlash asosida o'qitib kelinmoqda.

2. Pedagogik texnologiya asosida o'qitish bu izlanishni, fikrlashni, tushinishni va amalda qo'llashni talab etadi. Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak.

1. Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish bilan birga o'qishga o'rgatish zarur.

2. O'quvchilarning bilimlarni egallashini bevosita ta'lim jarayoniga ko'chirish.
3. Ta'lim jarayonida mazkur darsga mo'ljallangan to'liq o'zlashtirishga erishish.
4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni to'liq faollashtirish.
5. Ta'limni shunday uyushtirish zarurki dars oxirida rejalashtirilgan maqsadga erishish ta'minlansin.
6. Ta'limda interaktiv metodlardan foydalanishni ta'minlash.
7. Ta'limni rejalashtirish va o'tkazishda moslanuvchan qayta aloqani ta'minlash.

O'rta Osiyoda mehnat tarbiyasining tarkib topishi. Buyuk mutafakkirlarning mehnat tarbiyasiga oid fikrlari Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. PEDAGOG, 7(5), 670- 676.
2. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.
3. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
4. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.
5. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.
6. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.
7. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
8. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
9. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
10. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.

11. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
12. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
13. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.
14. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
15. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26)